

O'ZBEKİSTONDA BIRJALAR FAOLIYAİGA OID QONUNCHILIKNI ASOSLARI

Qodirov Muxriddin Yaminovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti, 2-kurs magistranti.

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada, ma'lumki, barcha sohalarni rivojida, uni huquqiy asoslari mustahkam bo'lishi hamda yetarli faoliyat uchun imkoniyat yaratilgani muhim o'rinn tutadi. Shunday kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida birjalarni faoliyati uchun yetarli qonuniy asoslар mustahkamlab qo'yilgan hisoblandi.

Kalit so'zlar: fuqarolik kodeksi, faol tadbirkorlik, Repo bitimini, qimmatbaho qog'ozlar.

Xususan, bu haqda O'zbekiston Respublikasi Konyatitutsiyasi eng asosiy hujjat hisoblandi. Unda mulk masalalari, iqtisodiy huquqlar va shunga oid normalar yetarli darajada asoslab berilgan¹.

Shunidek, Fuqarolik kodeksi (1996), «Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarni huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi (1996), «Baholash faoliyati to'g'risida»gi (1999) «Garov to'g'risida»gi (1998), «Birjalar va birja faoliyati to'g'risida»gi (2014), «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi (2015) qonunlari², O'zbekiston Respublikasi Prezidentini «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi (2017) PF-4947-son, «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishni beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida»gi (2018) PF-5308-son Farmonlari, 2030 yilgacha O'zbekistonne rivojlantirish strategriyasiga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonida, «Qimmatli qog'ozlar hamda repo bitishuvlarini amalga oshirish to'g'risida»gi (2004), «O'zbekiston Respublikasini davlat qimmatli qog'ozlari hamda repo bitimlarini tuzish va ijro etish tartibi to'g'risida»gi nizomlar (2008) va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarda birjalar va uni faoliyatiga oid eng muhim qonuniy normalar mavjud hisoblandi³.

Shunidek, mamlakatimizda bitim, shartnomalar va qimmatli qog'ozlar hamda tartibga solinadigan munosabatlarni nazariy va amaliy jihatlardan o'rganishga oid bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, unda sohani huquqiy masalalariga atroflicha to'xtalib o'tlgan .

Hamda ilmiy asoslarni mustahkamlash, huquqiy qulaylik kabi masalalar ham huquqshunos olimlarni diqqatida bo'lib kelmoqda. Xususan, birjalar sohasida repo bitiminio'rghanish ham shular jumlasidandir. Birja bitimlari, xususan, repo bitimi hamda bog'liq masalalar MDH mamlakatlari olimlaridan tomonidan tadqiq etilgan.

Bulardan tashqari, qimmatli qog'ozlar va ular vositasida amalga oshiriladigan operatsiyalarni iqtisodiy-nazariy asoslari K.N.Korienko, V.A.Galanov, I.L.Butikov, S.A.Arifjanovalarni ilmiy izlanishlarida aks ettirilgan⁴.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T., 2023.

² Qarang // Lex.uz.

³ Qarang // Qonun hujjatlari to'plami. Lex.uz

⁴ Худойқулов Х.Х. Фонд бозори активларини баҳолаш моделлари таҳлили ва уларни назариялари.

“Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, ноябр-декабр, 2017 йил.



Bunda bitimni bazaviy vazifasi Markaziy banklar uchun – bank tizimini likvidliligini boshqarish hisoblansa, moliya institutlari uchun – o‘z aktivlarini likvidlilik darajasini boshqarish hisoblanadi⁵.

Shu nuqtai nazardan bir qator olimlarni mazkur bitim to‘g‘risidagi qarashlari ko‘rib chiqilgan.

Olimlarni bir qator keltirilgan ta‘riflarida bitimni mohiyati to‘g‘ri talqin etilgan bo‘lsa-da, uni xususiyati to‘liq ochib berilmagan. Ta‘riflardan repo bitimini tuzishdan yagona maqsad qimmatli qog‘ozlarni sotish va sotib olish orasidagi narxlar hisobiga foydadan iborat, – degan xulosa chiqarish mumkin.

Bugungi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladigan yangi huquqiy va moliyaviy vositalarni joriy etish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Xususan, qimmatli qog‘ozlarga nisbatan mulk huquqini sotib oluvchiga o‘tishi, bitim shartlarini ijro etish jarayonida yuzaga keladigan xavfni va riskni oldini olish va boshqarish xususiyatiga egaligi, bitim tuzilayotganda taraflarni kredit tarixi talab etilmaydi⁶.

Repo bitimini tuzish natijasida taraflar quyidagi vazifalarni bajaradilar.

Bitim tuzishda ikki taraf – sotuvchi va sotib oluvchi (kontragent)lar ishtirok etadi⁷. Ushbu sub‘ektlarni maqomi bitimni har bir bosqichida bir-biriga muvofiq ravishda o‘zgarib turadi. Bundan tashqari, bitim tuzishda mazkur ikki tarafga xizmat qiluvchi bir nechta ishtirokchilar qatnashadi va ular bitim tuzishda yordamchi funksiyani bajaradi.

Ular bitim tuzilganda, o‘z xizmatlarini ma'lum bir haq evaziga taqdim etadi. Bitim tuzishdan ko‘zlangan maqsad ularga taalluqli emas. Bitim tuzishda davlatlarni Markaziy banklari ham ishtirok etadi. Ular uchun foya ahamiyatli hisoblanmaydi. Ular bitim yordamida banklarni likvidliligini va mamlakatdagi infliyatsiyani qisqa muddatlarda boshqarishga harakat qiladi.

Navbatdagi vazifa sifatida «Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi haqida to‘xtalib o‘tsak⁸.

Birja savdosi har bir mamlakatda muayyan qonunlar majmui asosida tartibga solinadi.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda keyingi yigirma yil ichida Birja savdosini qonunchilik yo‘li bilan tartibga solish kuchaydi⁹.

Ilgari ko‘pgina mamlakatlarda Birja muomalasi, asosan, Birjani o‘zida ishlab chiqilgan me'yor hamda qonunlar asosida tartibga solinar edi.

Xususan, AQShda 1973 yıldan fyuchers Birjalari ishini barcha tovar fyuchers savdosi bo‘yicha komissiya boshqaradi. Uni xodimlari tarkibini Prezident tayinlaydi va Kongress tasdiklaydi.

Angliyada 1986 yilgacha tovar Birjasi faoliyatini Angliya banki kuzatib turgan, 1986 yıldan bu vazifani qimmatbaho qog‘ozlar va investitsiya bo‘yicha Kengash bajaradi.

Frantsiyada bunday boshqarish fyuchers tovar bozori bo‘yicha komissiyaga, Yaponiyada turli vazirliliklarga yuklatilgan.

⁵ O’sha joyda.

⁶ Qarang // Lex.uz// O‘zbekiston Respublikasining birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida qonuni. – T., 2004.

⁷ М.Э. Бобоҷонов Қимматли қоғозлар воситасида тузиладиганrepo битимларини кўллашнинг фуқаролик-хуқуқий таъминлаш масалалари 12.00.03 – фуқаролик хуқуқи. тадбиркорлик хуқуқи. оила хуқуқи. ҳалқаро хусусий хуқуқ юридик фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. Тошкент – 2018

⁸ Qarang // Lex.uz// O‘zbekiston Respublikasining birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida qonuni. – T., 2004.

⁹ М.Э. Бобоҷонов Қимматли қоғозлар воситасида тузиладиганrepo битимларини кўллашнинг фуқаролик-хуқуқий таъминлаш масалалари 12.00.03 – фуқаролик хуқуқи. тадбиркорлик хуқуқи. оила хуқуқи. ҳалқаро хусусий хуқуқ юридик фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. Тошкент – 2018



O‘zbekistonda 1992 yil 2 iyulda «Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida» Qonun qabul qilindi¹⁰. 1992 yilni martidan Vazirlar Mahkamasi qarori bilan Birjalar ishini muvofiqlashtiruvchi O‘zbekiston Respublikasi birjalari kengashi tuzildi¹¹.

1995 yil sentyabrda respublika Moliya vazirligi qoshida Qimmatbaho qog‘ozlar va fond Birjalari bo‘yicha davlat komissiyasi tuzildi¹².

Komissiya qimmatbaho qog‘ozlar bozorini shakllantirish, rivojlantirish, nazorat qilish va korxonalar hamda davlat boshqaruvi organlarini Birjadagi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha davlat siyosatini amalgalashadi.

O‘zbekiston Respublikasini qonuni birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida Ushbu Qonun birjalar tashkil etish va birja faoliyatini huquqiy boshqarish tartibini belgilaydi.

Birja - Birja avvaldan tayinlanadigan manzil va vaqtida belgilangan qoidalar asosida ochiq savdosoti o‘tkazish orqali birja tovarlari hamda erkin ulgurji savdo qilish uchun shart-sharoitlar yaratuvchi, yuridik shaxs hisoblanadigan korxonadir¹³.

Ushbu Qonunni ikkinchi moddasida Birja faoliyati haqida so‘z boradi. Birja faoliyati — tovarlarga bo‘lgan talab va ularni taklif qilishni amalda mavjud nisbatlarini aniqlash hamda uni hisobga olgan holda narx-navoni shakllantirish asosida birja tovarlarini ulgurji bozorini vujudga keltirishga qaratilgan harakatlarni majmuidan iboratdir.

Ushbu Qonun uchinchi moddasida birja tovari haqida so‘z boradi. Ya’ni, mol-mulk, shu jumladan ko‘chmas mol-mulk, xizmatlar, mahsulot yetkazib berishga doir shartnomalar, intellektual mulk, qiymatli qog‘ozlar, valyuta mablag‘lari va fuqarolar o‘rtasida muomalaga chiqariladigan boshqa tovar birja tovari hisoblanadi.

O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra, Yer, yer osti boyliklari, suvlar, boshqa tabiiy resurslar, madaniyat va tarixga doir milliy boyliklar ro‘yxati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan boshqa turdagи tovarlar birja tovari bo‘lishi mumkin emas¹⁴.

Qonunchilikka ko‘ra Birja faoliyatini qatnashchilari kuyidagilardir. Ya’ni, mulkchilikni barcha shaklidagi korxonalar, tashkilotlar, brokerlik va dilerlik firmalari (idoralari), brokerlar, dilerlar, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el yuridik va jismoniy shaxslari birja faoliyatini ishtiropchilari hisoblanadi¹⁵.

Birja tuzish va birja faoliyati hamda bog‘liq munosabatlar «O‘zbekiston Respublikasidagi korxonalar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasini Qonuni, ushbu Qonun, O‘zbekiston Respublikasini boshqa qonun hujjatlari hamda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida esa Qoraqalpog‘iston Respublikasini qonunlari hamda ham tartibga solib turiladi¹⁶.

Birja ta’sis etish va uni faoliyatini tashkil qilish Birja ta’sis etish va uni tugatish quyidagicha amalga oshirilda¹⁷. Birja yuridik shaxslar tomonidan ham, jismoniy shaxslar tomonidan ham, shu jumladan chet el yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan ular o‘rtasidagi ixtiyoriy kelishuv asosida ta’sis etiladi. Birja ta’sis etish ta’sis shartnomasi hamda rasmiylashtirilib, unda birjani vazifalari va

¹⁰ Qarang // Lex.uz// O‘zbekiston Respublikasining birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida qonuni. – T., 1992.

¹¹ O’sha joyda.

¹² Qarang // Lex.uz//

¹³ Qarang // Lex.uz// O‘zbekiston Respublikasining birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida qonuni. – T., 2004.

¹⁴ Qarang // Lex.uz// O‘zbekiston Respublikasining birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida qonuni. – T., 2004.

¹⁵ Ушбу Конун «Халқ сўзи» газетасининг 2014 йил 13 сентябрдаги 178 (6108)-сонида эълон қилинган.

¹⁶ Lex.uz // Birja va birja faoliyati to‘g‘risidagi qonunlar.

¹⁷ Qarang // Lex.uz// O‘zbekiston Respublikasining birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida qonuni. – T., 2004.



faoliyat sohasi, birja muassislarini tarkibi, ustav fondini miqdori, har bir muassisni ustav fondidagi ulushi, ulush kiritish muddatlari va tartibi ko'rsatiladi.

Birjani ustav fondi eng kam oylik ish haqini 500 baravaridan kam bo'lmasligi kerak¹⁸.

Ustav fondini eng kam miqdori har yili narx-navo darajasini o'zgarishiga muvofiq ravishda qonunlarda belgilangan tartibda indeksatsiya qilinishi lozim.

Birja ustav fondini ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorda shakllantirishni eng ko'p muddati, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, birja davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan oshmasligi lozim¹⁹.

Bu borada quyidagilarni ma'lum qilishimiz mumkin, ya'ni²⁰:

- 1) davlat hokimiysi va boshqaruvini oliy hamda mahalliy idoralari;
- 2) davlat banklari va davlat kredit muassasalari (bunda banklar fond va valyuta birjalarini muassislar bo'lishi mumkin);
- 3) davlat sug'urta va davlat investitsiya kompaniyalari hamda fondlari;
- 4) jamoat, diniy va xayriya birlashmalari (tashkilotlari) hamda fondlari;
- 5) qonunlarga ko'ra tadbirkorlik faoliyati hamda shug'ullanishi man etilgan jismoniy shaxslar birja muassislar bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra birja belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgandan keyin birja savdo-sotig'i o'tkazish huquqini qo'lga kiritadi²¹.

Shunidek, birjalar faoliyatini tugatish va qayta tashkil etish O'zbekiston Respublikasini qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T., 2023.
2. Qarang // Lex.uz.
3. Qarang // Qonun hujjatlar to'plami. Lex.uz
4. Худойкулов X.X. Фонд бозори активларини баҳолаш моделлари таҳлили ва уларни назариялари. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 6, ноябр-декабр, 2017 йил.
5. O'sha joyda.
6. Qarang // Lex.uz// O'zbekiston Respublikasining birjalar va birja faoliyati to'g'risida qonuni. – T., 2004.
7. М.Э. Бобоҷонов Қимматли қоғозлар воситасида тузиладиган репо битимларини кўллашнинг фуқаролик-хуқуқий таъминлаш масалалари 12.00.03 – фуқаролик хуқуқи. тадбиркорлик хуқуқи. оила хуқуқи. халқаро хусусий хуқук юридик фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. Тошкент – 2018

¹⁸ Qarang // <https://uz.wikipedia.org/wiki/Birja>

¹⁹ Qarang // Lex.uz// O'zbekiston Respublikasining birjalar va birja faoliyati to'g'risida qonuni. – T., 2004. Кўшимча маълумот учун қаранг: Ўзбекситон Республикаси Фуқаролик кодексининг 64-моддаси, Ўзбекситон Республикасининг «Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг хуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида»ги Қонунининг 3-моддаси

²⁰ З-модданинг бешинчи қисми Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 21 апрелдаги ЎРҚ-683-сонли Қонуни таҳририда — Қонунчилик маълумотлари миллӣ базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон

²¹ LexUZ шархи Қаранг: Ўзбекситон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 21 февралдаги 80-сонли қарори билан тасдиқланган «Махсус электрон тизим орқали айrim фаолият турларини лицензиялаш тартиби тўғрисида ягона»ги низом.



8. Qarang // Lex.uz// O‘zbekiston Respublikasining birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida qonuni. – Т., 2004.
9. М.Э. Бобоҷонов Қимматли қоғозлар воситасида тузиладиган репо битимларини қўллашнинг фуқаролик-хуқуқий таъминлаш масалалари 12.00.03 – фуқаролик хуқуки. тадбиркорлик хуқуқи. оила хуқуқи. ҳалқаро хусусий хуқук юридик фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. Тошкент – 2018
10. Qarang // Lex.uz// O‘zbekiston Respublikasining birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida qonuni. – Т., 1992.
11. O’sha joyda.
12. Qarang // Lex.uz//
13. Qarang // Lex.uz// O‘zbekiston Respublikasining birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida qonuni. – Т., 2004.
14. Qarang // Lex.uz// O‘zbekiston Respublikasining birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida qonuni. – Т., 2004.
15. Ушбу Қонун «Халқ сўзи» газетасининг 2014 йил 13 сентябрдаги 178 (6108)-сонида эълон килинган.
16. Lex.uz // Birja va birja faoliyati to‘g‘risidagi qonunlar.
17. Qarang // Lex.uz// O‘zbekiston Respublikasining birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida qonuni. – Т., 2004.
18. Qarang // <https://uz.wikipedia.org/wiki/Birja>
19. Qarang // Lex.uz// O‘zbekiston Respublikasining birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida qonuni. – Т., 2004. Кўшимча маълумот учун қаранг: Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 64-моддаси, Ўзбекистон Республикасининг «Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг хуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида»ги Қонунининг 3-моддаси
20. 3-модданинг бешинчи қисми Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 21 апрелдаги ЎРҚ-683-сонли Қонуни таҳририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон
21. LexUZ шархи Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 21 февралдаги 80-сонли қарори билан тасдиқланган «Махсус электрон тизим орқали айrim фаолият турларини лицензиялаш тартиби тўғрисида ягона»ги низом.

